mat qiladi, shu bois qiyosiy tahlil antonimlarni “shakl” emas, “funksiya” markazida turib o‘rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, diskurs va diskursiv talqin doirasida antonimiya masalasi ko‘p sathli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tizimiy-semantik oppozitsiya, kontekstual qayta talqin, pragmatik strategiya, stilistik figura va kognitiv ramka kabi qatlamlar bir-birini to‘ldiradi, demak, bu yo‘nalishda samarali tadqiqot olib borish uchun klassik leksikologik mezonlar, diskurs tahlili, pragmalingvistika va korpus metodlarini integrativ modelga birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa shuni ko‘rsatadiki, antonimiya zamonaviy tilshunoslikda faqat leksik-semantik oppozitsiya sifatida emas, balki diskursning kohezion va pragmatik qurilishida faol qatnashadigan funksional birlik sifatida ham talqin qilinmoqda; buning natijasida “antonimik munosabat” tushunchasi matn ichidagi kontrast konstruksiyalari, dialogik strategiyalar, stilistik figuralar hamda kognitiv ramkalar bilan bir tizimda ko‘riladigan holatga kelmoqda.

Demak, diskursiv talqinda antonimlar muammosi ikki yo‘nalishni birlashtiradi: birinchisi – til tizimidagi qarama-qarshiliklarning shakllanishi va tipologiyasi ya’ni leksik, so‘z yasalish, grammatik, frazeologik, ikkinchisi esa shu qarama-qarshiliklarning real nutqiy vaziyatda qanday pragmatik effekt berishi, ya’ni, baholash, argumentatsiya, ironiyalash, murosa yoki pozitsiyalash kabi strategiyalarni qanday qo‘llab-quvvatlashi; shu ikki qatlamni integratsiyalab tahlil qilish o‘zbek va fransuz materiali uchun ham, umuman, diskurs tadqiqotlari uchun ham metodologik jihatdan istiqbollidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Murphy M. Lynne, Paradis C., Willners C. Introduction. Lexical contrast in discourse. Journal of Pragmatics. 2009, vol. 41, №11, p. 2137–2139.

(2). Shukurov R., O‘zbek tilida antonimlar, 1977, 6-bet.

(3). Haydarov A.A., Barnoyeva M.A. So‘zlararo ma’noviy munosabat turlari (antonimiya hodisasi misolida), 2024, 153-bet.

(4). Зайцева Н.В. Виды антонимов в составе антонимического корпуса текста. 2007, с. 86.

(5). Reig Alamillo A. va boshq., The Analysis of Synonymy and Antonymy in Discourse Relations: An Interpretable Modeling Approach. 2023, p. 430.

(6). Toshtonova M. O‘zbek tilida inson tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari. 2017, 12-bet.

(7). Xamidova M.H. Fransuz hamda o‘zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi. 2024, 7-bet.

(8). Reig Alamillo A., Torres Moreno D., Morales González E., Toledo Acosta M., Taroni A. Hermosillo Valadez J. The Analysis of Synonymy and Antonymy in Discourse Relations: An Interpretable Modeling Approach. Computational Linguistics. 2023, vol. 49, № 2, p. 429–464.

(9). Зайцева Н.В. Виды антонимов в составе антонимического корпуса текста. “Научная мысль Кавказа”, 2007, № 4, с. 82–86.

(10). Bobojonova S. (2022). Pragmatic interpretation of educational discourse and expression of dialogic discourse in the communication process.

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna (Andijon davlat Chet tillari instituti katta o‘qituvchisi; lolaxon972@gmail.com)

ANTROPONIMLAR LISONIY BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada antroponimlar tilshunoslikda maxsus nominativ birlik sifatida tahlil qilinadi hamda ularning semantik, sotsiolingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Antroponimlarning identifikatsion, kommunikativ, sotsial va emotiv-pragmatik funksiyalari ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, jahon tilshunosligida mavjud bo‘lgan turli nazariy yondashuvlar, xususan, antroponimlarning demotivatsiyasi va semantik yuklamasi haqidagi qarashlar tahlil etiladi. Tadqiqotda fransuz antroponimik tizimi misolida ismlar va familiyalarning tarixiy, etimologik hamda madaniy asoslari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, nominativ birlik, semantika, demotivatsiya, sotsiolingvistika, fransuz antroponimikasi, globalizatsiya, madaniy identitet, pragmatika, onomastika.*

АНТРОПОНИМЫ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Аннотация. *В данной статье антропонимы рассматриваются как особые номинативные единицы в лингвистике, а также освещаются их семантические, социолингвистические и прагматические особенности. Научно обосновываются идентификационная, коммуникативная, социальная и эмотивно-прагматическая функции антропонимов. Кроме того, анализируются различные теоретические подходы, существующие в мировой лингвистике, в частности взгляды на демоти-*

вацию и семантическую нагрузку антропонимов. В исследовании на примере французской антропонимической системы рассматриваются исторические, этимологические и культурные основы личных имён и фамилий.

Ключевые слова: *антропоним, номинативная единица, семантика, демотивация, социолингвистика, французская антропонимия, глобализация, культурная идентичность, прагматика, ономастика.*

ANTHROPONYMS AS LINGUISTIC UNITS

Annotation. *This article examines anthroponyms as specific nominative units in linguistics and highlights their semantic, sociolinguistic, and pragmatic features. The identificational, communicative, social, and emotive-pragmatic functions of anthroponyms are explained on a scientific basis. In addition, various theoretical approaches in world linguistics are analyzed, particularly views on the demotivation and semantic load of anthroponyms. The study explores the historical, etymological, and cultural foundations of personal names and surnames based on the example of the French anthroponymic system.*

Keywords: *anthroponym, nominative unit, semantics, demotivation, sociolinguistics, French anthroponymy, globalization, cultural identity, pragmatics, onomastics.*

Kirish. Ism-shariflar inson jamiyatining ajralmas til birliklaridan biri bo‘lib, ular orqali nafaqat shaxs, balki uning etnik, madaniy, diniy va tarixiy kelib chiqishi haqida ma’lumot olish mumkin. Tilshunoslikda inson ismlarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi soha ‘‘antroponimika’’ deb ataladi va u umumiy onomastika fanining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Onomastikaga bagishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida ham so‘z boradi. Antroponim, asli, grekcha so‘z bo‘lib, aptgo–odam+opim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O‘zbek tilida bu termin o‘rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qo‘llaniladi.

Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar yakan, uning tarkibiga ism, otasining ismi, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qiladi [1;31-b.].

Tadqiqot usullari. Antroponimlar – insonlarga beriladigan ism-shariflar, familiyalar, taxalluslar va laqablar – milliy, madaniy hamda tarixiy xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi til birliklari sifatida tahlil etiladi.

Antroponimlar tilshunoslikda «maxsus nominativ birlik» sifatida qaraladi. Ular har bir tilning o‘ziga xos fonetik va morfologik tizimiga moslashgan holda shakllanadi va o‘ziga xos semantik yuklamaga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida “William”, fransuz tilida “Guillaume”, rus tilida “Василий”, o‘zbek tilida “Xurshid” kabi ismlar muayyan madaniy va tarixiy konnotatsiyalarni o‘zida mujassam etadi.

Jahon tilshunosligida antroponimlar “maxsus nominativ birliklar” sifatida quyidagi xususiyatlarga ega deb qaraladi:

1. Identifikatsion funksiya – shaxsni boshqalardan farqlash.
2. Kommunikativ funksiya – aloqa jarayonida murojaat vositasi.
3. Sotsial funksiya – jamiyatda maqom, tabaqa, jins, diniy mansublikni ifodalash.
4. Emotiv-pragmatik funksiya – ismlarning estetik, psixologik, milliy-assotsiativ ma’nolari.

Munozara va natijalar. Antroponimlar tilshunoslikda ko‘p qirrali yondashuvlarni talab qiluvchi hodisa bo‘lib, bu borada olimlar o‘rtasida bir nechta muhim nazariy bahslar mavjud. Superanskaya A.V. antroponimlarni “axborot yukiga ega bo‘lgan nominativ birliklar” deb ta’riflaydi va ularning semantik jihatdan unikal bo‘lishini ta’kidlaydi [2;25-b..]. Ya’ni, har bir ism o‘z kontekstida ijtimoiy, madaniy va shaxsiy identifikatsiya vositasi sifatida amal qiladi.

Ba’zi olimlar (jumladan, A.Superanskaya va N.A.Baskakov) antroponimlar o‘z ma’nolarini yo‘qotgan, ya’ni « demotivatsiyalangan til birliklari » deb ta’kidlaydi. Ularning fikricha, zamonaviy ismlar (masalan, “Jean”, “Martin”, “Kevin”) semantik jihatdan passiv bo‘lib qolgan, ya’ni ularning asl lug‘aviy ma’nolari omma uchun begona.

Bunga qarshi o‘laroq, P.Hanks va K.Hardcastle kabi onomastika tadqiqotchilari antroponimlar hali ham “semantik yuk” ko‘tarishini ta’kidlaydi, chunki ular shaxs, jamiyat va madaniyat haqida axborot beradi. Masalan, “Fatima” ismi musulmon madaniyatida diniy ahamiyatga ega bo‘lsa, “Claire” ismi fransuz kontekstida go‘zallik va ravshanlik timsolidir.

P.Burdyo ismlar – bu ‘‘simvolik kapital’’ ekanini, ya’ni, jamiyatda ijtimoiy maqom, etnik kelib chiqish, hatto iqtisodiy holatni anglatishi mumkinligini aytgan. Bunga ko‘ra, antroponimlar shunchaki til birliklari emas, balki “ijtimoiy tarmoqlarda tan olinadigan belgilar”dir.

Ammo Trudgill kabi sotsiolingvistlar bu fikrni ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi va antroponimlarning ijtimoiy rolini kontekstual holatga qarab baholash kerakligini urg‘ulaydi.

Ba’zi tadqiqotchilar (masalan, E.Haugen) global madaniyatning tarqalishi natijasida ismlar “yassi” holga kelayotganini, ya’ni, madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotib, umumiy, zamonaviy, ko‘p tillarda ishlatiladigan shakllarga aylanayotganini bildiradi (“Kevin, Lara, Adam” kabi).

Boshqa tomon esa (J. Fishman va M.Krashen) mahalliy nomlash an'analari baribir saqlanib qolishini, “lingvomadaniy qarshilik” mavjudligini ta’kidlaydi. Ch.Bally ismni “individni nomlash orqali uni ijtimoiy kontekstga joylashtiruvchi birlik” sifatida ta’riflaydi. R.Algeo esa antroponimlarni “madaniyat kodlari va tarixiy qatlamlarning lisoniy belgisi” deb hisoblaydi.

Antroponimlar asosan quyidagi toifalarga bo‘linadi:

•Ismlar (prénom): shaxsga tug‘ilganda beriladigan asosiy ism.

•Familiyalar (nom de famille): avloddan avlodga o‘tuvchi, shaxsni oilaviy identifikatsiya qiluvchi nom.

•Taxalluslar (surnoms): ko‘pincha, norasmiy, ayrim hollarda rasmiy maqomga ega bo‘lgan nomlar.

•Laqablar (sobriquets): Shaxsning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi yoki shaxsiy jihatlariga asoslangan nomlar.

Antroponimlar semantik jihatdan ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. “Motivatsiyalangan antroponimlar” (ma’no anglatadigan): Masalan, "Claire" (fransuzcha — “aniq, ravshan”) yoki "Victor" (g‘alaba qiluvchi).

2. “Demotivatsiyalangan antroponimlar” (asl ma’nosini yo‘qotgan yoki unutilgan): Masalan, "Martin", "Julie" – hozirda ko‘pchilik foydalanuvchilar bu ismlarning asl kelib chiqishini bilmaydi.

Fransuz antroponimik tizimi qadimiy gall-rim, lotin va xristian madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Misollar orqali quyidagi tahlillarni keltirish mumkin:

“Jean” – Bu ism ibroniycha “Yohanan” dan kelib chiqqan bo‘lib, “Xudo rahmli” degan ma’noni anglatadi. Bu ism nasroniylik ta’siri bilan fransuz tiliga kirib kelgan. “Claire” ismi esa - Lotincha ‘‘clarus’’ (“ravshan, yorqin”) so‘zidan olingan. Ayollarga beriladigan bu ism go‘zallik va ma’naviy poklik timsoli sifatida qaraladi [3;156-b.].

“Dubois” familiyasi “bois” “o‘rmon” so‘zidan olingan bo‘lib, “Dubois” "o‘rmonda yashovchi" degan ma’noni bildiradi. Bu kabi familiyalar ko‘pincha shaxsning yashash joyi yoki kasbiga bog‘liq bo‘lgan. “Boulanger” familiyasi esa nonvoy, kasb nomidan kelib chiqqan. Bu hodisa ko‘plab yevropa tillari uchun xos bo‘lib, ingliz tilidagi “Smith” so‘zi temirchi, metal ustasi degan ma’noni anglatuvchi so‘z bilan o‘xshashlikka ega. Shuningdek, bu familiya ma’nosida ham keladi

Fransiyada Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga ko‘ra, bola tug‘ilganida ism tanlashda davlat tomonidan ruxsat etilgan nomlar ro‘yxati mavjud bo‘lib, bu holat antroponimik tizimga rasmiy-nazorat mexanizmini kiritgan.

So‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan antroponimlarning talqiniga ham e’tibor kuchaydi. Kognitiv yondashuvda ism inson tafakkuridagi konseptual tuzilmaning bir qismi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, ism shaxs haqidagi ijtimoiy-kognitiv ma’lumotlar majmuasini o‘zida mujassam etadi (Lakoff, 1987; Langacker, 1991).

Zamonaviy jahon tilshunosligida antroponimlar “globalizatsiya” sharoitida turli transformatsi-yalarga uchramoqda:

•Ko‘p madaniyatli ism tanlash. Fransiyada hozirgi kunda arabcha, afrikacha, osiyolik ismlar keng tarqalgan (masalan, “Fatima”, “Nguyen”, “Mei”).

•Anglizatsiyalashish. Ayrim fransuz oilalari farzandlariga xalqaro talaffuzda qulay bo‘lgan inglizcha nomlar tanlamoqda (masalan: “Kevin”, “Ashley”).

•Identifikatsiya va assimilyatsiya. Muhojir oilalar milliy ildizlarini saqlash maqsadida an’anaviy ismlar qo‘llayotgan bo‘lsa-da, ba’zilar ijtimoiy integratsiya sababli lokal antroponimlarni tanlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga kelish mumkin.

Antroponimlar tilshunoslikning muhim obyektlaridan biri sifatida nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Ular insonning kimligi, jamiyatdagi o‘rni, milliy va diniy mansubligi haqida muhim axborot manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, fransuz antroponimik tizimi boy tarixiy va madaniy qatlamlarga ega bo‘lib, undagi ismlar va familiyalar asosan lotin, ibroniy, gall-rim ildizlariga borib taqaladi. Shu bilan birga, globalizatsiya sharoitida antroponimlarning o‘zgaruvchanligi va boshqa tillar bilan o‘zaro ta’siri ularning lingvistik talqinini yanada murakkablashtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Подольская Н.В. Словарь русской ономастической термнологии. Москва: Наука, 1988. С. 31.

(2). Суперанская А.В. общая теория имени собственного. Москва, “Наука», 1973.

(3). Dauzat A. Les noms de personnes: origine et évolution. Paris, Librairie Delagrave, 1987.

(4). Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013.

(5). Maxammadjonovna S.L. (2026). Antroponimlarning jahon tilshunosligida shakllanishi. American journal of education and learning, 4(2), p. 509–513.

Xodjayev Sidiq Axmedovich (FarDU “Adabiyotshunoslik” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

QADIMGI YOZUV TIZIMLARINI DESHIFROVKA QILISH MUAMMOLARI: O‘RXUN-ENASOY BITIKLARI VA MAYYA YOZUVI MISOLIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi tamaddunlar yozuv tizimlarining o‘rganilishi, xususan, deshifrovka qilingan va qilinmagan bitiklar haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqotda O‘rxun-Enasoy bitiklari va mayya yozuvining kashf etilishi hamda ularning deshifrovka qilinish jarayoni ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil asosida turli tamaddunlar yozuv madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rxun-Enasoy bitiklari, mayya yozuvi, qadimgi yozuv tizimlari, deshifrovka, iyeroglif yozuv, runik yozuv, qadimgi tamaddunlar, epigrafika.*

Ходжаев Сидык Ахмедович (ФГУ, литературоведения, доцент, доктор филологических наук (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

ПРОБЛЕМЫ РАСШИФРОВКИ ДРЕВНИХ СИСТЕМ ПИСЬМА: НА ПРИМЕРЕ ОРХУН-ЕНИСЕЙСКИХ НАДПИСЕЙ И МАЙЯСКОГО ПИСЬМА

Аннотация. *В данной статье идет речь о проблемах изучения письменных систем древних цивилизаций, в частности дешифрованных и недешифрованных письменных памятников. В исследовании анализируется история открытия и процесс дешифровки орхоно-енисейских надписей и письменности майя. Особое внимание отводится их научному значению для лингвистики и культурологии. На основе сравнительного анализа определяются особенности развития письменной культуры различных цивилизаций.*

Ключевые слова: *Орхуно-Енисейские надписи, письменность майя, древние системы письма, дешифровка, иероглифическая письменность, руническое письмо, древние цивилизации, эпиграфика.*

Khodjayev Sidiq Akhmedovich (FSU Associate professor, Doctor of philosophy in philological Sciences (PhD); ORCID: 0009-0001-71492132)

PROBLEMS OF DECIPHERING ANCIENT WRITING SYSTEMS: ON THE EXAMPLE OF THE ORKHUN-ENASOY INSCRIPTIONS AND THE MAYA WRITING

Annotation. *This article examines the study of ancient civilizations, particularly deciphered and undeciphered inscriptions. The research analyzes the discovery and decipherment of the Orkhon-Yenisei inscriptions and the Maya writing system. Special attention is given to their scientific significance in linguistics, history, and cultural studies. Based on a comparative approach, the study reveals distinctive features of the development of writing traditions in different civilizations.*

Keywords: *Orkhon-Yenisei inscriptions, Maya writing system, ancient writing system, decipherment, hieroglyphic writing, runic script, ancient civilizations, epigraphy.*

Kirish. Jahon tamadduni tarixida haligacha o‘z yechimini to‘liq topmagan qator ilmiy muammolar mavjud. Ana shunday dolzarb masalalardan biri ming yillik tarixgi ega bo‘lgan qadimgi sivilizatsiyalarga mansub yozuv tizimlarini o‘qish va ularni ilmiy jihatdan deshifrovka qilish jarayoni hisoblanadi.

XVI asrda yashagan ispaniyalik ruhoniy Diyego de Landa mayya belgilarini “alifbo” deb atagan bo‘lsa, bir necha asrlar davomida olimlar buni xato deb o‘ylaganlar. Rus olimi Knozorov Meksika yoki Gvatemalaga bormasdan, “Drezden kodeksi” nusxalari, de Landa yozib qoldirgan “alifbo” ma’lumotlaridan foydalanib, ularni qayta matematik va mantiqiy tahlil qilgan [1;45–52-b.] va mayya yozuvlari to‘liq alifbo emas, balki. bo‘g‘inli(sillabik) yozuv tizimi, “rasmlar ortida tovush bor” degan g‘oyani ilgari surdi hamda buni “Pismennost indeytsev mayya”, “Iyeroglificheskiye rukopisi mayya” (1963–1975) [2;200–215-b.] kitob-larida va 100 dan ortiq maqolalarida isbotlab berdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mayya yozuvi go‘zal va murakkab ko‘rinishga ega edi. Y.Knorozovning kashfiyotlari natijada mayya yozuvi o‘qila boshlangach, butun bir tamaddun “so‘zlay” boshladi. Olimga bunga erishish uchun 20 yilga yaqin vaqt kerak bo‘ldi. U mayya yozuvi shifrini topishda mantiqiy